XALQ DEPUTATLARI TERMIZ TUMANI KENGASHINING QARORI

191200, Termiz tumani At-Termiziy ko‘chasi 1-uy, tel:(376)36-32-200, faks: (376)36-32-200

2022 - yil 30 - iyun VI-43-90-8-117-K/22 Termiz tuman hokimligi

Tumandagi yangi tashkil etilgan “Yangi O‘zbekiston” mahalla fuqarolar yig‘ini nomini “Kelajak” nomi bilan o‘zgartirish to‘g‘risida

“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi “2022-2026-yillarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-172-sonli shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4- martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 48-sonli qarorlarining ijrosini ta’minlash maqsadida tuman hokimligi huzuridagi Geografik obyektlarni nomlash masalalarini muvofiqlashtirish tuman komissiyasi 2022-yil 1-iyundagi 11-01/63-sonli yig‘ilish bayonini ko‘rib chiqib,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi “2022-2026-yillarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-172-sonli qarorining ijrosini ta’minlash yuzasidan qabul qilingan tuman hokimligi xuzuridagi Geografik obyektlarni nomlash masalalarini muvofiqlashtirish tuman komissiyasi 2022-yil 1-iyundagi 11-01/63-sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tumanidagi yangi tashkil etilgan “Yangi O‘zbekiston” mahalla fuqarolar

yig‘ini nomi “Kelajak” deb o‘zgartirilsin.

3. Xalq deputatlari Termiz tumani Kengashining 2022-yil 18-fevraldagi VI-38-23-8-117-k/22-sonli qarori bekor qilinsin.

4. Termiz tumani Davlat kadastlari palatasi boshlig‘i (E.Achilov)ga yangi tashkil etilgan “Kelajak” mahalla fuqarolar yig‘inlarining chegaralarini belgilab, ko‘rsatib berish vazifasi topshirilsin.

5. Tuman Davlat xizmatlari markazi (B.Xudoyberdiyev)ga yangi tashkil etilgan “Kelajak” mahalla fuqarolar yig‘inini belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilishini hamda muxr va tamg‘alarini olishini muvofiqlashtirish vazifasi yuklatilsin.

6. Tuman ichki ishlar bo‘limi (O‘.Mustafoqulov) yangi tashkil etilgan “Kelajak” mahalla fuqarolar yig‘ini aholisining fuqarolik pasportlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish chora-tadbirlarini ko‘rsin.

7.Tuman Moliya bo‘limi (U.Ko‘chkinov)ga ushbu mahalla fuqarolar yig‘inlarining smeta va shtatlar jadvalini ko‘rib chiqish hamda moliyalashtirish tartibini belgilab berish vazifasi topshirilsin.

8.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (Sh.Aripova) zimmasiga yuklatilsin.

Termiz tumani Xalq deputatlari Kengashi raisi **Urinov.SH.B**